

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

#### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**S.MAHMUDOVA**

<b>“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir” .....</b>	6
---	---

## PEDAGOGIKA

**X.Kadirov, B.Xamdamov**

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati .....	8
---	---

**L.Yo’Idosheva**

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	13
---	----

**M.Alimjanova**

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari .....	17
--	----

**B.Xaydarov**

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
--	----

**G.Absalamova**

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
---	----

**F.Mirzayeva**

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
--	----

## IQTISODIYOT

**T.Xaydarov, B.Karimov**

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi .....	36
--	----

## FALSAFA, SIYOSAT

**N.Hakimov, D.Amridinova**

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---	----

**I.Raximov**

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	48
---	----

**R.Isamutdinov**

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
--	----

**S.Xoliqov**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari .....	57
---	----

## ТАРИХ

**M.Xurramov**

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari .....	61
---	----

**R.Arslonzoda**

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi .....	69
---	----

**I.G‘ulomov, Z.Kasimova**

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish .....	76
---	----

**G.Haydarov**

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi .....	83
--	----

**G.Dadamirzayeva**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati .....	88
---	----

**A.Aduvali**

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
--	----

**N.Komilov**

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
--	----

**M.Darmonova**

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

**L.Sokolova**

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari .....	107
--	-----

**O.Zaripov**

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi .....	113
--	-----

**FARG'ONA VODIysi AHOLISI IJTIMOIY TURMUSH SHAROITLARINI YANADA  
YUKSALTIRISHDA HALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI**

**ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ В  
ДАЛЬНЕЙШЕМ УЛУЧШЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ  
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ**

**THE HISTORY OF COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN  
FURTHER IMPROVING THE SOCIAL LIVING CONDITIONS OF THE POPULATION OF THE  
FERGHANA VALLEY**

Haydarov G'ayratbek<sup>1</sup>

<sup>1</sup>*Haydarov G'ayratbek*

– O'zbekiston Miliy universiteti O'zbekistonning  
eng yangi tarixi kafedrasи mustaqil izlanuvchisi.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada mustaqilknинг dastlabki yillarda Farg'ona vodiysi viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy holat, aholini turmush darajasini yaxshilash borasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar va halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yoritilgan. Amalga oshirilgan taqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysi aholisining ijtimoiy turmushini oshirishda keng miqiyosida jahonning eng nufuzli halqaro tashkilotlaridan biri hisoblanmish BMTning turli sohalardagi bo'linmalari va boshqa Yevropa, hamda Sharqi mintaqaning halqaro tashkilotlari bilan keng qamrovli aloqalari o'rganilgan, shuningdek istiqbollari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.*

**Аннотация**

*В этой статье рассматривается социально-экономическая ситуация в регионах Ферганской долины в первые годы независимости, реформы, проведенные нашим правительством для повышения уровня жизни населения, и сотрудничество с международными организациями. В результате проведенных запретов были изучены широкомасштабные отношения ООН с международными организациями различных сфер и другими европейскими и восточными регионами, считающимися одной из самых влиятельных международных организаций мира в повышении социальной жизни населения Ферганской долины.*

**Abstract**

*This article covers the socio-economic situation in the Fergana Valley regions in the early years of independence, reforms carried out by our government to improve the living standards of the population and cooperation with international organizations. As a result of the bans carried out, the wide-ranging relations of the UN with international organizations of different spheres and other European and eastern regions, considered one of the most influential international organizations of the world in increasing the social life of the population of Fergana Valley, were studied, as well as opinions were expressed about the prospects.*

**Kalit so'zlar:** BMT, MDH, Yevropa ittifoqi, Shanhay hamkorlik tashkiloti, ijtimoiy-iqtisodiy, dastur, hamkorlik, taraqqiyot, suv resurslari, sog'liqni saqlash, islohot, tuman, viloyat, chora-tadbirlar.

**Ключевые слова:** ООН, СНГ, Евросоюз, Шанхайская организация сотрудничества, социально-экономические отношения, программа, сотрудничество, развитие водные ресурсы, здравоохранение, реформа, район, область, мероприятие.

**Key words:** UN, CIS, European organization, Shanghai cooperation organization, social and economic program, cooperation, development, water resources, health, imorovment, region.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)** O'zbekiston Respublikasi 1991-yilda Davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy holati juda og'ir holatda bo'lib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab yozganlaridek, ... "Respublika asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'satkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'ttacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinnlardan birida turgan. O'zbekiston har bir kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'satkich esa Ittifoqdagi o'ttacha darajadan ikki hissa past bo'lgan. O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilgan. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zini qo'lidan keladigan ishni topa olmagan. Ijtimoiy infratuzulma tarmoqlari; sog'liqni saqlash, halq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan." [1. 5-6.]

Bu holatni yuzaga kelishiga asosiy sabab, sobiq Ittifoq davridagi "... iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriyatçilik, buyruqbozlik usullarini qo'llanilishi, O'zbekiston, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlarni qaror toptirilishi,... respublikaga xomashyo bazasi sifatida qaralganligi" [1,7.] dir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda jahon tajribasiga tayangan holda o'z taraqqiyoti uchun mos va xos bo'lgan evolyutsion taraqqiyot yo'lini tanlab bozor munosabatlariaga bosqichma-bosqich o'tish sari yo'l tutdi.

Andijon viloyatiga 1995-yil muntazam ravishda jahon halqaro tashkilot hisoblangan YuNISEFdan aprel, may, avgust, dekabr oylarida, tibbiyot sohasi rivojlangan Germaniya Federativ Respublikasidan aprel, dekabr oylarida, hamda Shveystsariyadan dekabr oyida aholi salomatligi uchun zarur bo'lgan tibbiyotda ishlatiladigan qo'lqoplar, bir martali shpritslar va turli xil dori-darmonlar rastvor suyuqliklar yetkazib berilgan. [3,68-69.] Chunki, mustaqillikning dastlabki yillarda aholining salomatligini yaxshilash eng dolzarb vazifalardan biri edi. Zero, mustaqillikka erishgan davlatning aholisini sifatlari dori-darmonlar bilan ta'minlash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish ham bu davrda ancha og'ir sharoitda bo'lgan hozirda ayni haqidatdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Andijon va Farg'ona viloyatlari aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1998-yil 12-noyabrda qabul qilingan №473-sonli qarori asosida Farg'ona viloyat hokimligi 1998-yil 15-dekabrda №278-sonli qarorini qabul qilib, qarorga ko'ra, viloyatni Quva shahrida "Ona va bola" shifoxonasini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha ishlar uchun zaruriy mablag'larni ajratish, qurilish ta'mirlash ishlari bilan birga ushbu kasalxona zamonaviy tibbiy asbob uskuna va jihozlar bilan jihozlanishi amalga oshirish masalasi muhim vazifa sifatida ta'kidlangan. [4. 45.]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA** Tadqiq etilgan davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ham vodiyligi viloyatlarida halqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, AQShning halqaro rivojlanish agentligi (USAID) tomonidan 1999 yilning may oyida Andijon viloyati hokimligi bilan kelishgan holda, viloyatdagi 30 nafar tadbirkor ishtirokida "Investitsiya va kreditlar" mavzuida o'quv seminarlari o'tkazildi.

1999-yilning 25-28-may kunlari esa Germaniya Respublikasining "Konrad Adenauer" fondi tomonidan viloyatning 35 nafar tadbirkori ishtirokida o'quv seminari o'tkazildi. Viloyatda "Biznes-Imkon" bo'limi tomonida 7 nafar tadbirkor AQSh va Germaniya davlatlarida malaka oshirib va tajriba almashib qaytishdilar.

Shu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 16-aprelda bo'lib o'tgan sessiyasida yaqin yillarda kichik va o'rta biznes sub'ektlari miqdorini ikki martaga ko'paytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar ulushini viloyat YalMidagi ulushini 25 foizga yetkazish bo'yicha bergen tavsiyalarini amalga oshirish maqsadida Germaniya Respublikasining "Konrad Adenauer" fondi tomonidan viloyatda tashkil etilgan o'quv seminarlarda 40 nafar, AQShning "Halqaro rivojlanish agentligi" tomonidan o'tkazilgan seminarda 3 nafar, (USAID) dasturi orqali o'tkazilgan o'quv seminarlarda esa 33 nafar tadbirkor ayollar ishtirok etdi. [5.20.]

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)** Ushbu amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida viloyatda kichik va o'rta biznesga mansub korxonalar tomonidan faqat 1999 yilning o'zida 30,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bu holat viloyat miqyosida ushbu sohada 1998 yilga nisbatan 1,8 marta o'sishga erishilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. [5. 13-18.] Joriy yilni iyun oyida Namangan shahrida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilgan seminarda viloyat banklarining rahbarlari va 48 nafar tadbirkorlar ishtirok etdi. [6.11.]

Viloyatning palata infratuzilmalari tarkibiga kiruvchi "Biznes markaz"i tomonidan ilg'or ish tajribalarini o'rganish maqsadida viloyatdan 7 nafar tadbirkor Gollandiya Respublikasiga bir haftalik o'qishga yuborildi. [5.13-18.]

Farg'ona viloyatida ham AQShning halqaro rivojlanish agentligi (USAID) tomonidan 1999-yil 20-25-sentyabr kunlari tashkil etilgan o'quv seminarida buxgalteriya milliy standart va plan schyotlariga o'tish mavzulari bo'yicha mavzularida seminar-treninglarda 35 nafar tadbirkor va mutasaddi tashkilotlarning mutaxassislari ishtirok etdilar. [6.13-18.]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 24-dekabrda "Sil kasaliga qarshi kurashish va ayollarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish uchun Germaniya Federativ Respublikasi hukumati tomonidan qo'shimcha ravishda berilayotgan grantlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 449-sonli qarori [6.94.] haqida Farg'ona viloyati hokimligi 2002-yil 29-dekabrda №238-sonli qarorini qabul qildi. Qabul qilingan qarorga asosan, O'zbekiston Respublikasi tashqi

## TARIX

iqtisodiy aloqalar vazirligi va Germaniya Respublikasining “KFW” banki o’rtasida tuzilgan moliyaviy shartnomaga muvofiq, “Sil kasaligiga qarshi kurashish-II” joriy loyihasiga qo’shimcha ravishda Andijon, Namangan va Farg’ona viloyatlarida “Sil kasaligiga qarshi kurashish-III” dasturini amalga oshirish uchun 2.500000 (ikki mln. besh yuz ming) yevro miqdorda grant ajratilinganligi, ajratilingan mablag’larni belgilangan maqsadda foydalanish lozimligi, grant doirasida olinadigan dori-darmonlar, tibbiyot va laboratoriya asbob-anjomlarini, sarflanadigan materiallarni qabul qilib olish, to’plash va yetkazib berish, taqsimlanishi va ulardan belgilangan maqsadlarda foydalanish lozimligi qayd etilgan. [7.95.]

Aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo’lgan toza ichimlik suvi bilan ta’minalashini yaxshilash maqsadida 2004-yil 25-mayda O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalari agentligining IIIA-01/14-2663-sonli xati bilan Shveysatsariya rivojlanish va hamkorlik agentligi tomonidan moliyalashtirilgan dasturga asosan, Farg’ona viloyati uchun 750 ming AQSh dollari miqdorida beminnat mablag’ ajratilinganini, ushbu mablag’lardan maqsadli foydalanish zarurligi viloyat, tumanlar kesimida ichimlik suvi ta’minoti og’ir bo’lgan hududlar bo'yicha loyiha smeta ishlarini tashkil etish uchun 20 mln. so’m ajratilishi zarurligi tahlidlangan. [8.23.]

O’zbekiston Respublikasi ishtirok etgan turli halqaro tashkilotlar doirasasi 2004-yilga kelib shunchalik kengaydiki, u BMT va uning tarkibiga kiruvchi barcha tashkilot va muassasalarni hamda MDH, Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti, Shanhay Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, respublikada faoliyat olib borayotgan ikki yarim mingdan ortiq jamoat nodavlat tashkilotlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga faol hissa qo’shamoqda. [9.18.]

O’zbekiston Respublikasining ushbu nufuzli halqaro tashkilotlarga a’zo davlatlar bilan to’g’ridan-to’g’ri ikki tomonlama muntazam ravishda yaqin hamkorlik o’rnatganligi natijasida Janubiy Koreya, AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Shveysatsariya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar tomonidan ajratilgan yirik miqdordagi grant va investitsiyalari hisobiga respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jabhalariga mansub yirik loyihalari amalga oshirildi. 2004-yilga kelib, O’zbekiston Respublikasida AQSh bilan 49 ta, Turkiya bilan 50 ta, Rossiya Federatsiyasi bilan 56 ta, Buyuk Britaniya bilan 40 ta, Janubiy Koreya bilan 23 ta Shveysatsariya bilan 18 ta yirik ishlab chiqarish subektlari va majmualari tashkil qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-sentyabrida “Sog’lijni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo’nalishlari to’g’risida”gi Farmoni qabul qilindi. [10.]

Masalan, Farg’ona viloyatida 1991-yildagi 5460 nafardan 2004-yilga kelib, 6355 nafarga, o’rta tibbiyot xodimlarining soni esa 22810 nafardan 36380 nafarga ortdi. Viloyatda 188 ta qishloq vrachlik punktlari tashkil qilish rejalashtirilgan bo’lsa, 2004-yilga kelib, ularning soni 293 taga yetdi. Ushbu amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishda ayniqsa, viloyatdagagi 256 ta qishloq vrachlik punktlarini zamonaviy tibbiyot jihozlari bilan jihozlash uchun O’zbekiston Respublikasi hukumati bilan “Jahon banki” o’rtasida tuzulgan shartnomaga muvofiq, ajratilgan kreditlar hisobiga amalga oshirildi. [10.]

Yuqorida zikr etilgan Farmonga asosan, Britaniyaning “Nou-xau” dasturi asosida Farg’ona viloyatidagi 373 ta QVP xodimlari “Umumiyl amaliyot vrachi” sohasi bo'yicha 10 oylik kurslarda qayta tayyorgarlikda o’tishdi. Viloyatdagagi 22 ta QVP va oilaviy poliklinika mudirlari esa Buyuk Britaniya, Estoniya davlatlarida tajriba almashib, malakasini oshirib qaytdilar. O’rta tibbiyot xodimlaridan 143 nafari ushbu davrda Isroi davlatining “Mashav” dasturi bo'yicha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko’rsatish sohasi bo'yicha malaka oshirib qaytdilar. [10.]

Farg’ona viloyatida “Salomatlik-2” loyihasi doirasida Respublikada birinchi bo’lib, Marg’ilon shahrida 7 ta oilaviy poliklinikalar tashkil etilib, ularni mukammal ta’mirlash uchun 1 mlrd. so’mdan ortiq mablag’ sarflandi. Bitta oilaviy poliklinika yangidan qurildi.

RSHTYolM Farg’ona filiali 2007-2008-2009-yillar davomida Islom Rivojlanish Banki tomonidan 113 turdagagi 1 mlrd. 499 mln. so’mlik tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Shundan 2009-yilda 52 mln. so’mlik 40 xil turdagagi tibbiy asbob-uskunalar olingan. 2010-yil davomida esa viloyatning shahar va tumanlarining tibbiyot birlashmalari qoshidagi shoshilinch tibbiy yordam bo’limlari ta’mirlashdan chiqarilib, ushbu bo’limlarga ham Islom Rivojlanish Banki tomonidan zamonaviy asbob-anjomlar bilan jihozlanishi ta’mindandi. [10.]

**MUHOKAMA** Fikrimizcha, iqtisodiy yo’nalishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik amaliyoti muayyan qarorni halq farovonligini oshirish va manfaatlarni himoya qilishni e’tiborga olingan holda qabul qilishga doir konstitutsiyaviy printsipga to’la ma’noda javob beradi.

Aksariyat davlatlarning tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, uy-joy qurilishi va infratuzilma sohasini taraqqiyotning ustuvor yo’nalishi sifatida belgilash milliy iqtisodiyotni qayta tiklashning hal

qiluvchi vostasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Buyuk depressiya deb atalgan 1930 yillardagi inqiroz davrda AQSh Prezidenti Ruzvelt yakka tartibdagi uy-joy qurilishini kredit bilan ta'minlash tizimini joriy qildi va bu islohot iqtisodiy o'sishni tiklashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

O'z vaqtida Germaniya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya davlatlari va boshqa mamlakatlarda iqtisodiyotni rag'batlantirish hamda qayta tiklash maqsadida ana shunday dasturlar qabul qilingan. [2. 4-5.]

2006-2012-yillar mobaynida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi O'zbekiston hukumati bilan qishloqlarni kompleks yangilash loyihibariga ko'maklashish maqsadida milliy, hududiy va mahalliy darajada hamkorlik qilmoqda.

Jumladan, ushbu Dastur tomonidan Namangan, Farg'ona, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq joylarni yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli dasturlar amalga oshirildi.

Ushbu dasturlar doirasida mahalliy aholi, tuman va viloyat davlat boshqaruvi organlari ishtirokida qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan, ammo uncha katta bo'lmagan infratuzilmaviy loyihibar amalga oshirildi. Dasturlar doirasida kam ta'minlangan aholi qatlaming bandligini samarali ta'minlash "ekologik barqaror" texnologiyalar yordamida fermerlar mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirish, ayollar tadbirkorlik faoliyatini va chorvachilikni rivojlantirish hamda yer-suv resurslarini boshqarish usullarini takomillashtirish masalalarida hamda tabiatga va aholiga yetkazilgan ekologik zarar, u bilan bog'liq holda aholi salomatligiga salbiy tahsir ko'rsatadigan xavf-xatarlarni bartaraf qilish borasida hamkorlik qilingan.[11. 27-28.]

Andijon viloyatida Xitoy taraqqiyot banki kredit liniyasi hisobidan 19,7 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy kredit mablag'lari evaziga viloyatdagi "Asaka tekstil" AJga kalava ip ishlab chiqarishga uskunalar sotib olish uchun 1.7 mln. AQSh dollari, "Alerteks" qo'shma korxonasiiga kalava ip ishlab chiqarishga uskunalar sotib olish uchun 4.3 mln. AQSh dollari, "Tagus tekstil" MCHJ qo'shma korxonasiiga kalava ip ishlab chiqarishga uskunalar sotib olish uchun 3.7 mln. AQSh dollari, "Poytug'teks" qo'shma korxonasiiga kalava ip ishlab chiqarish uchun uskunalar sotib olishga 4.99 mln. AQSh dollari, "Samosherteks" qo'shma korxonasiiga kalava ip ishlab chiqarishga uskunalar sotib olish uchun 5 mln. AQSh dollari miqdorida kredit liniyalari ochilishga erishilgan. [12. 310.] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari bo'yicha 2007-yilda qabul qilgan Qarorlarini ijrosini ta'minlash mobaynida vodiyning Andijon, Namangan[13.10.] va Farg'ona [10.] viloyatlarida Janubiy Koreya "Eksimbank"i bilan o'zaro kelishuvga asosan, "Umumta'lim maktablarini axboratlashtirish", "O'rta maxsus kasb hunar ta'limini rivojlantirish", "Kichik biznes kadrlar tayyorlashda kasbiy ta'limni rivojlantirishga ko'maklashish" loyihasi doirasida ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlash, o'quv jarayonini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.[12. 113.]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 12-fevralida PQ -792-sonli "Xitoy Halq Respublikasi hukumati tomonidan beriladigan grant mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi [14.76.] qarori bo'yicha Farg'ona viloyati hokimligi 2008-yil 20-fevralida №53-sonli qarori qabul qilinib, qarorga ko'ra, grant mablag'lari asosida harid qilingan tibbiy asbob-uskunalarini viloyat tumanlari kesimida taqsimotini ta'minlash, asbob-uskunalarini joylashtirish va ulardan maqsadli samarali foydalanish lozimligi zikr etilgan. [14.76.]

Namangan viloyatida ham viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minotini yaxshilash borasida ham amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Namangan shahar Oqava suvlarni tozalash inshootini rekonstruktsiya qilish bo'yicha birgina 2010-yilning to'rtinchchi choragida respublika hukumati kafolati ostida 1 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy krediti ajratildi. [15.7.]

Loyiha amalga oshirilishi jarayonning dastlabki bosqichida dastlabki texnik iqtisodiy asoslash hujjalari Xitoy Halq Respublikasining "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti"ga a'zo davlatlarga ajratilgan imtiyozli kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirildi. Ushbu loyihaning umumiyligi qiymati 34,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, ulardan 25 mln AQSh dollari xorijiy investitsiya va kredit mablag'lari bo'lib hisoblanadi. [15.8.]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-sentyabrdagi "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish 2-Faza" loyihasini jahon banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. [16.]

Ushbu qabul qilingan qarorga ko'ra, Jahon banki [17.] tomonidan O'zbekiston suv resurslarini tartibga solish va ulardan samarali foydalanish ishlarini amalga oshirish uchun 2017-yil 30-iyunda besh yillik imtiyoz bilan 25 yil muddatga 144,9 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratildi. Loyihani qo'shimcha moliyalashtirish uchun esa Yevro'a Ittifoqi 16,4 mln. AQSH dollari miqdoridagi grantini jalb etilishga erishildi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ushbu loyihaning umumiyligi qiymati 228,2 mln. AQSh

## TARIX

dollariga teng bo'lib, uning 83,3 mln. AQSh dollari esa O'zbekiston Res'ublikasi hissasiga (36,9 mln AQSh dollari-soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish ko'rinishida) to'g'ri kelgan.

**XULOSA** Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysidagi viloyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga hamda ko'plab sohalarni modernizatsiya qilishga alohida urg'u berildi. Hukumatning iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga yo'naltirilgan siyosati natijasi o'laroq mintaqada xorijiy investitsiyalar jalb qilish hajmi yildan-yilga keskin ravishda o'sib bordi. Natijada ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik asosida tashkil etilgan korxonalardagi ishlab chiqarish salmog'i ham ortib, sarmoyalalar to'la ma'noda o'zini oqlab bu natijalar esa iqtisodiy hayot jabhalarini o'stirishga va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

### ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida - Toshkent: O'zbekiston 2015. (И.Каримов. Узбекистан на пороге независимости)
2. I.Karimov "Zamonaviy uy-joy qurilishi-qishloq joylarni kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili mavzusidagi halqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi - Toshkent: "O'zbekiston" 2013. (И.Каримов «Выступление на церемонии открытия международной конференции «Современное жилищное строительство – фактор комплексного развития и преобразования сельских территорий и повышения качества жизни населения»)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Andijon viloyat bo'limi. Jamg'arma 4141, Ro'uxat 6, Ish 80.(Андижансское областное управление архива Управления делами Президента Республики Узбекистан. Фонд)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Farg'ona viloyat bo'limi. Jamg'arma 2048, Ro'uxat 6, Ish 44.(Ферганское областное управление архива Управления делами Президента Республики Узбекистан.)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Andijon viloyat bo'limi. Jamg'arma 4141, Ro'uxat 18, Ish 126.(Андижансское областное управление архива Управления делами Президента Республики Узбекистан.)
6. Namangan viloyat davlat arxiv. Jamag'rma 934. Ro'uxat 204. Ish 7.(\_Наманганский областной государственный архив.)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Farg'ona viloyat bo'limi. Jamg'arma 2048, Ro'uxat 15, Ish 24.(\_Ферганское областное управление архива Управления делами Президента Республики Узбекистан.)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Farg'ona viloyat bo'limi. Jamg'arma 2048, Ro'uxat 16, Ish 86.(\_Ферганское областное управление архива Управления делами Президента Республики Узбекистан.)
9. Ubaydullaeva S.F. O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning siyosiy jihatlari. //siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati - Toshkent: 2004.(\_. Убайдуллаева С.Ф. Политические аспекты привлечения иностранных инвестиций в Узбекистан. // Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук – Ташкент)
10. Farg'ona viloyat davlat arxiv. Farg'ona viloyat iqtisodiyot boshqarmasini doimiy saqloviga oid xujjalat ro'uxati. 1993-2016 yillarda - Farg'ona: 2017.(\_ Ферганский областной государственный архив. Перечень документов для постоянного ведения Ферганского областного управления экономики)
11. Jixan Sultanoglu O'zbekistonning jadal olib borayotgan isloxoatlari doirasida qishloqni tubdan obodonlashtirish tajribasi. // "Zamonaviy uy-joy qurilishi-qishloq joylarni kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili" mavzusidagi halqaro konferentsiya materiallari - Toshkent: "O'zbekiston" 2013.((Джихан Султаноглу Опыт коренного благоустройства села в рамках ускоренных реформ Узбекистана. // Материалы международной конференции «Современное жилье – фактор комплексного развития и преобразования сельской местности и повышения качества жизни» – Ташкент)
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Andijon viloyat bo'limi. Jamg'arma 4141, Ro'uxat 31, Ish 123.(\_Андижансское областное отделение архива Управления делами Президента Республики Узбекистан.)
13. Namangan viloyati davlat arxiv. Jamg'arma 948. Ro'uxat 1. Ish 4.(\_Наманганский областной государственный архив)
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Farg'ona viloyat bo'limi. Jamg'arma 2048, Ro'uxat 19, Ish 54.(\_. Ферганское областное управление архива Управления делами Президента Республики Узбекистан.)
15. Namangan viloyati Davlat arxiv. Jamag'rma 9048. Ro'uxat 1. Ish 4.(\_ Государственный архив Наманганской области.)
16. Qonun xujjalari ma'lumotlari milliy bazasi. 25.09.2017 y. 07/17/ 32820008-son.(\_ Национальная база данных законодательства)
17. [uz.wikipedia.org/wiki/Jahon\\_banki](http://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_banki)

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)